




**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O‘RTA MAXSUS TA'LIM
VAZIRLIGI
O‘ZBEKISTON JURNALISTIKA VA OMMAVIY KOMMUNIKATSIYALAR
UNIVERSITETI**

**“OMMAVIY AXBOROT VOSITALARIDA TIL VA USLUB MASALASI:
TAHLIL, TASNIF, QIYOS”**

**MAVZUSIDAGI XALQARO ILMIY-AMALIY KONFERENSIYA
MATERIALLARI**

TOSHKENT – 2022

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIIY VA O‘RTA MAXSUS TA‘LIM
VAZIRLIGI**

**O‘ZBEKISTON JURNALISTIKA VA OMMAVIY
KOMMUNIKATSIYALAR UNIVERSITETI**

**“OMMAVIY AXBOROT VOSITALARIDA TIL VA USLUB
MASALASI: TAHLIL, TASNIF, QIYOS”**

Xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya

2022-yil 30-noyabr

Международная научно-практическая конференция

**«ПРОБЛЕМА ЯЗЫКА И СТИЛЯ В СМІ: АНАЛИЗ,
КЛАССИФИКАЦИЯ, СРАВНЕНИЕ».**

30 ноября 2022 года

International scientific and practical conference

**“THE PROBLEM OF LANGUAGE AND STYLE IN MASS MEDIA:
ANALYSIS, CLASSIFICATION, COMPARISON”**

November 30, 2022

<u>IV. PUBLITSISTIKA VA BADIY TAHLIL</u>	
XOLMIRZAYEVA S. TOKTASINOVA R. “BOYSUN” FOLKLOR ETNOGRAFIK XALK ANSAMBLI	246
SUNDETULY K. KAZAKISTAN'DA HALK EĞITIMI ALANINDA BÜYÜK İNSANLAR	249
JAMILOVA B. ABDURAUF FITRAT PUBLITSISTIKASI VA BADIY TALQIN	253
КОЖИКБАЕВА З. ЖӘМІЙЕТЛИК ДҮЗИМ ХӘМ САТИРАЛЫҚ ПУБЛИЦИСТИКАНЫҢ ҮЙЛЕСИМЛИГІ	257
ПАРДАЕВА М. АБДУЛЛА ҚОДИРИЙНИҢ СИЁСИЙ-ИЖТИМОЙЙ МАВЗУЛАРДАГИ ҲАЖВИЯЛАРИДА ФОРСИЙ, АРАБИЙ ВА РУСЧА СЎЗЛАРНИҢ БАРАВАР ҚЎЛЛАНИЛИШИ	260
FAYZULLAYEVA Z. OCHERKLARDA INSON SIYRATI	264
ASHUROVA F. “CHIG‘ATOY GURUNGI” TASHKILOTI FAOLIYATIDA	268
ESHPUATOVA S. BAHSLARDA TUG‘ILGAN HAQIQAT	270
ALLABERGANOVA A. MUTRIB XONAXAROBIIY IJODIDA PUBLITSISTIK USLUBNING NAMOYON BO‘LISHI	274
DJUMANIYAZOVA Z. O‘ZBEK MAQOLLARIDA AYOL OBRAZINING AKSIOLOGIK JIHATDAN IFODALANISHI	276
ARZIKULOVA S. CHO‘LPON PUBLITSISTIK ASARLARIDA AYOL TAQDIRI	279
TO‘XTAYEVA D. BOSHLANG‘ICH SINIF DARSLIKLARIDA PUBLITSISTIK MAQOLA VA MATNLAR IFODASI	283
QURBONOVA N. CHOR HUKUMATI DAVRIDA O‘ZBEK ADABIYOTI NAMOYONDALARIGA QILINGAN NOHAQLIK VA TAHDIDLAR	287
OCHILOVA S. KO‘CHIM PARALINGVISTIKANING MAXSUS TURI SIFATIDA	289
RASULOV M NURMATOVA S. NOTIQLIK – SAN‘AT	293
<u>V. MEDIAMATNLAR TAHLILI VA TAHRIRI</u>	
ORAZIMBETOVA Z. QORAQALPOQ MATBUOTDA TAHLILIIY JANRDAGI MATERIALLARNING TILI VA USLUBIGA OID TAHLILLAR	296
TASHMUKHAMEDOVA L. BADIY ADABIYOTLAR TAHRIRI	299
МИРЗАНАЗАРОВА Э. АХМЕДОВА С. СВОЕОБРАЗНОЕ ОТРАЖЕНИЕ И ЗНАЧЕНИЕ КАЛИГРАФИИ В РАЗВИТИЕ СОВРЕМЕННОГО ИСКУССТВА	303
HALIMOVA S. “TUJJOR” GAZETASINING TILI VA USLUBI	310
SAFAROV A. O‘ZBEKCHA FRONT GAZETASI TILI, USLUBIGA MAFKURAVIY TALABNING TA‘SIRI	313
MUXANOVA M. MATN TA‘SIRCHANLIGINI OSHIRUVCHI VOSITALAR	316
OLIMOV H. SPORTGA DOIR MATNLARNING LEKSIK ASOSLARI	319
NE‘MATOVA G. “UZBEKISTAN AIRWAYS” JURNALIDA O‘ZBEKISTON NUFUZINI YANADA OSHIRISHGA XIZMAT QILAYOTGAN MAQOLALAR TAVSIFI	322
ABDYUJANOVA V. PUBLITSISTIK MATN TAHRIRINING MANTIQUIY ASOSLARI	326

NASIMOVA I. STORITELLING PUBLITSISTIKA JANR SIFATIDA	330
XASANOVA A. PUBLITSISTIK MATNDA FRAZELOGIZMNING AHAMIYATI	333
MEYLIYEVA A. BOLALAR NASHRLARIDA MEDIAMATNLAR TAHLILI VA TAHRIRI	336
ABDUG'ANIYEV A. MEDIA MATNLARIDA TIL ME'YORLARINING BUZILISHI	338
<u>VI. NOTIQLIK MAHORATI</u>	
NURMANOVA S . PEDAGOG NUTQINING KOMMUNIKATIV SIFATLARI	339
ISLOMOVA SH .NUTQIY FAOLIYATNI O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI	341
АБДУЛЛАЕВ Ж. ЭЛГА ШОҲУ ҲАҚҚА ҚУЛ	345
NURUTDINOVA M . MARKAZIY OSIYODAGI BUYUK NOTIQLAR, ALISHER NAVOIY VA UNING ZAMONDOSHLARI HAQIDA	351
АЛИМХОНОВА Ш . РИТОРИКА - НАУКА И ИСКУССТВО	355
ШАКУРБАНОВА Н .ФОРМИРОВАНИЕ И РАЗВИТИЕ ОПАТОРСКОГО ИСКУССТВА В РЕЧЕВОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ ПЕДАГОГА	359
RUSTAMBEKOV M. ASRLAR OSHIB KELAYOTGAN SAN'AT	362
NURUTDINOVA M.ALISHER NAVOIY IJODIDA NOTIQLIK SAN'ATINING TALQIN ETILISHI.	365
МИРЗАЛИЕВА Д. ПСИХОЛОГИЯ ИНТЕРВЬЮИРОВАНИЯ	367
SODIQJONOVA Y. MUVAFFAQIYATLI NUTQ HOSIL BO'LISHIDA UNGA TA'SIR QILUVCHI OMILLAR	369
TUXSANOVA P. NOTIQLIK MAHORATI	372
ERGASHEV D. NOTIQLIK SAN'ATI	374
BOBOXONOVA F. TO'XTAYEVA D. INTERNET TARMOG'IDA NUTQ USLUBLARINING KO'RINISHI	378
QURBONOVA R. MULOQOT MA'DANIYATI VA TO'G'RI MULOQOT TASHKIL QILISH KO'NIKMASI.	382
<u>VII. TARJIMA MAHORATI: OAVDAGI TARJIMA MATNLARI TAHLILI</u>	
USMONOV O. FYODOR DOSTOYEVSKIYNING "JINOYAT VA JAZO" ROMANI TARJIMASI XUSUSIDA	386
MUHAMMEDOVA H. VIKTORIAN INGLIZ ADABIYOTI EMILI BRONTE IJODI MISOLIDA	389
BO'RONOVA B. BADIY TARJIMADA LIRIK TASVIR UYG'UNLIGI	391
ISMATULLAYEVA N. XITOYCHA REKLAMA MATNLARINING O'ZBEK TILIDAGI TARJIMASIDA PRAGMATIK XUSUSIYATLARNING IFODASI	396
MADVALIYEV O. TARJIMA MATNLAR TAHRIRI: TA'LIMDAGI BO'SHLIQ VA INNOVATSION YONDASHUV EHTIYOJI	399
RASULOVA K. OYBEKNING "NAVOIY" ROMANIDAGI TAOM VA YEGULIK	405

NOMLARINING TURKCHA TARJIMALARDA AKS ETISHI	
YAXYOPO'LATOVA N. TARJIMA MAHORATI: OAVDAGI TARJIMA MATNLARI TAHLILI	408
G'AFFOROV I. TARJIMASHUNOSLIK MUAMMOLARI, ULARNING YECHIMLARI VA BU SOHADA YARATILAYOTGAN IMKONIYATLAR	410
MA'RUPOVA R. OG'ZAKI TARJIMA JARAYONIDA ANALIZ VA SINTEZ	413
SHAMAQSUDOVA S. MEDIAMATNLARNI O'RGANISHDA DISKURSIV TAHLILNING O'RNI	416
ДЖУМАНИЯЗОВА З.АНТРОПОЦЕНТРИЧЕСКИЕ ПОСЛОВИЦЫ КАК ОБЪЕКТ АКСИОЛОГИЧЕСКОЙ ИНТЕРПРЕТАЦИИ	419
DADAYEVA O. BADIY MATNDA QO'LLANGAN KASB-HUNARGA OID SO'ZLAR LINGVOKULTUROLOGIK BIRLIK SIFATIDA	423
БУРХАНОВА М. ФРАЗЕО-СЕМАНТИЧЕСКИЕ ПОЛЯ В АНГЛИЙСКОМ ЯЗЫКЕ КАК ОТРАЖЕНИЕ ОСОБЕННОСТЕЙ АНГЛИЙСКОГО НАЦИОНАЛЬНОГО ХАРАКТЕРА	425
ZAFAROVA M. ANTROPOSENTRIK MAQOLLARNING QADRIYATLAR VA AKSIL QADRIYATLAR TIZIMLARI	428
XASANOVA A. FRAZELOGIZM MEDIAMATNLAR TA'SIRCHANLIGINI OSHIRUVCHI VOSITA	430
ERKINOVA F. PARALINGUISTIC MEANS	432
YODGOROVA K. MAMLAKATLAR MIQYOSIDA MEDIASAVODXONLIK TIZIMI	436
HIKMATOVA M. AUDIOVIZUAL JURNALISTIKADA NUTQ MADANIYATI MASALALARI	439
VIII. PR: MAHORAT MASALALARI	
МЎМИНОВ Ф. ГЛОБАЛИЗАЦИЯ, ОБЩЕСТВЕННАЯ ИНФОРМАЦИЯ И КУЛЬТУРА	443
NURUTDINOVA M. INTERNET KONTENTINING MEDIAMETRIK BAHOLOV TAHLILI	446
MAHMUDOVA S. TIJORAT REKLAMALARI MATNIGA DOIR MULOHAZALAR	45
UMURQULOVA G. INGLIZ VA O'ZBEK LINGVOMADANIYATIDA TO'Y MAROSIMLARINING VERBALLASHUVI	451
NURMANOVA S. IMIJNING PEDAGOG FAOLIYATIDAGI O'RNI	454
ELMURADOV A. MEDIAMAKONDA XAYPLARNING YUZAGA KELISHI	457
МИРЗАНАЗАРОВА Э. ДЖАЛАЛОВ Г. СОВРЕМЕННОЕ ИСКУССТВО КАК ФЕНОМЕН КУЛЬТУРЫ НОВОГО УЗБЕКИСТАНА И ЗНАЧЕНИЕ СМИ	462
БЕКБАЎЛИЕВ Д. ҚАЙЫПНАЗАРОВ Е. ҒХҚ АРАСЫНДА ЖЕРГИЛИКЛИ ТЕЛЕКАНАЛЛАР ХЫЗМЕТИ	473
BEKBAWLIEV D. KALLIBEKOVA G. MAWLENBERGENOVA G. QARAQALPAQSTAN TELEVIDENIESINDEGI INFORMACIYALIQ BAĞDARLAMALAR: TEMATIKASI, TILI HÁM STILLIK OZGESHELIGI	475
MALIKOVA G. XUSUSIY O'ZBEK TELEKANALLARIDA ADABIY TIL ME'YORLARI: MUAMMO VA YECHIM	478

SULEYMONOVA N. AXBOROT MANBAALARI BILAN ISHLASH: XORIY VA MILLIY TAJRIBA HAMDA HUQUQIY ASOSLARI	483
SHAROBIDDINOV SH. XUDOYNAZAROVA S. ZAMONAVIY JAMIYATDA JAMOATCHILIK BILAN ALOQALAR JAMOATCHILIK FIKRINI SHAKLLANTIRISH VOSITASI SIFATIDA	490
МАШАРИПОВА К.ОБЩНОСТЬ АНТРОПОЦЕНТРИЧЕСКИХ ПОСЛОВИЦ И АНТРОПОМОРФНОГО КУЛЬТУРНОГО КОДА	492
КУЗИБОЕВА Р. ПРИНЦИПЫ ОБУЧЕНИЯ РУССКОМУ ЯЗЫКУ	495
IBRAGIMOVA S. NATIONAL STATUS OF THE TEACHER IN THE SOCIETY AS A FACTOR OF PROGRESS	500
KO'CHIMOVA P. BADIY TARJIMANING INSON TASHQI KO'RINISHI BILAN BOG'LIQ SIFATLAR TARJIMASIDA GENDER MASALASI	503
JABBOROV M. HARBIY MAVZULARNI YORITISHDA AXBOROT MANBALARI BILAN ISHLASHNING O'ZIGA XOSLIGI	506
KOMILOVA Y.ZAHIRIDDIN MUHAMMAD BOBUR SIYOSIY PORTRETI	509
МАМЕДОВА Н. О НЕКОТОРЫХ ТРУДНОСТЯХ ПРИ ОБУЧЕНИИ АУДИРОВАНИЮ	515
MAHMUDOVA S. TOSHALIYEVA S. TIJORAT REKLAMALARI MATNIGA DOIR MULOHAZALAR	518
ЖУРНАЛИСТИКА ЖӘНЕ ПУБЛИЦИСТИКА	521
KO'CHIMOVA P. BADIY TARJIMADAGI JINS IFODASIDA O'XSHATISHLARNING TEMATIK TASNIFI	527
ТУРАБАЕВА Л. ИНТЕРНЕТ ЖУРНАЛИСТИКАНЫҢ ДАМУЫ	532
BAHRIYEVA M.INFORMATSION DASTURLARNI TAYYORLASHDA JURNALIST YONDASHUVI VA MAHORAT MASALALARI	536
ШОХАЕВА С. ВНЕДРЕНИЕ НОВЕЙШИХ ПЕДАГОГИЧЕСКИХ ТЕХНОЛОГИЙ НА УРОКАХ РУССКОГО ЯЗЫКА В НАЦИОНАЛЬНЫХ ШКОЛАХ	540
КУЗИБОЕВА Р. МЕТОДИКА ИЗУЧЕНИЯ РАЗДЕЛОВ НАУКИ О ЯЗЫКЕ	543
RAXMONOVA A. ONLAYN KONTENTDA MULTIMEDIAVIY JANR TAHLILI VA KONSEPTUAL TASNIFI	550

“Ommaviy axborot vositalarida til va uslub masalasi: tahlil, tasnif, qiyos” mavzusida o‘tkazilgan xalqaro ilmiy-amaliy anjuman materiallari.

(30-noyabr, 2022-yil) Toshkent, O‘zJOKU. – 560 b.

Tahrir hay’ati: Nargiza Mirzayeva, Saodat Shomaqsudova, Feruza Yakubova, Gulnoza Djurakulova, Ayimxon Eshniyozova, Barno Bo’ronova, Guli Shukurova, Jamoliddin Abdullayev

Mas’ul muharrirlar:

Akbar Nurmatov,
Latofat Toshmuhamedova,
Gulnoza Djurakulova

To‘plovchilar:

Nargiza Mirzayeva,
Gulnoza Djurakulova,
Aziza Siddiqova.

Sport matnlarida ko‘p uchraydigan holat, chunki bu muxlis uchun kayfiyat bag‘ishlaydi. Yaqinda “Yuventus” klubi haqida yozilgan “Keksa sinyora” maqolasini o‘qidim. Unda shunday fikrlar bor edi:

*...Pastdan “eski sinyora” kelayotganini ko‘rib, qaytanga “Napoli”yu “Roma”lar dovdirashga tushdi. Shundoq pastga qaraganda “Yuve”ni ko‘rgan “Inter”lar duduqlanishga o‘tdilar*²³.

Bu matn tarkibida ham haqiqat, ham kayfiyat yashirin. Maqolani o‘qigan odam yuzida tabassum yuguradi.

Yoki “Erudit” gazetasida e‘lon qilingan “Leoga Messidan maktub” maqolasi ham yumorga boy. *“Otang oxirgi sigaretasini chekib, diqqinafas bo‘ladi. Sen unga aslo e‘tibor bermagin, u azbaroyi seni davolashni o‘ylab shu sigaretalarni tutatib tashlaydi”*. Matnning har bir abzas oxirida, *“Yo‘q, yo‘q sen issiqqina kofeni ho‘plab ketaver”*, *“Katta bo‘lganingda tushunib olasan, ichaver kofeni, ichaver”*, *“Yana qara-a-b turibsan-a, aytdim-ku eshitib ketaver deb, sendan nima ketdi”*²⁴ kabi yumorlar o‘quvchining kayfiyatini ko‘taradi. Sportga doir maqola yozishda Xayrulla Hamidovdan ko‘p narsa o‘rgansa bo‘ladi.

Inversiya – gap bo‘laklarining noodatiy tartibda joylashuvi. Bunda muallif muhimroq nuqtalarga, so‘zlarga diqqatni qaratadi. Sport matnlarida ham bu holatni ko‘p uchratamiz. Masalan, *“Hozir ham osmonda uchib ketyapsan-u, buving ham yoningda uchib ketayotgandek tasavvur miyangda”*²⁵. Gohida butun boshli bir matn inversiya holatida yozilgan bo‘lishi mumkin. Bu albatta muallif uchun odatiylikdan qochish, maqolaning o‘qishli bo‘lishi uchun xizmat qiladi.

Mana yana bir misol: *“Leo, eslab qol oxirgi gapimni: hali birinchi o‘yiningda asli do‘st bo‘lmagan do‘stlaringning gapiga ishonib yurma tag‘in. Hech kim sindira olmaydi seni”*²⁶.

Aslida shu gaplarning odatiy tartibi quyidagicha bo‘ladi. *“Leo, oxirgi gapimni eslab qol: hali birinchi o‘yiningda asli do‘st bo‘lmagan do‘stlaringning gapiga tag‘in ishonib yurma. Seni hech kim sindira olmaydi”*²⁷.

“UZBEKISTAN AIRWAYS” JURNALIDA O‘ZBEKISTON NUFUZINI YANADA OSHIRISHGA XIZMAT QILAYOTGAN MAQOLALAR TAVSIFI

Ne‘matova Gulruh Bobir qizi

O‘zJOKU “Xalqaro va audiovizual jurnalistika” kafedrası o‘qituvchisi

Annotatsiya: Shiddat bilan ildamlab borayotgan bugungi tezkor zamonda mamlakat nufuzini oshirish ommaviy axborot vositalari zimmasiga ulkan mas’uliyat

²³ Hamidov X. “Keksa sinora qaytishi”

²⁴ Hamidov. X. Leodan Messiga maktub.

²⁵ O‘sha manba.

²⁶ Hamidov. X. Leodan Messiga maktub..

²⁷ O‘sha manba.

yuklaydi. Bu yo'lda O'zbekiston haqida to'liq tasavvur uyg'otishga hissa qo'shib kelayotgan "Uzbekistan Airways" jurnalining o'rni beqiyos. Mazkur OAV ning faoliyatini o'rganish barobarida tegishli xulosalar chiqarish ko'zda tutilgan.

Kalit so'zlar: Media makon, imij, turizm, investitsiya, loyiha, xalqaro forum, festival.

Mamlakatimiz bosma nashrlarining nufuzi kundan-kunga ortib borayotganligi ommaviy axborot vositalarining asosiy bo'g'ini bo'lmish gazeta va jurnallar faoliyatiga o'z ta'sirini o'tkazmay qolmaydi. Fikrimizni dalillash maqsadida "Uzbekistan Airways" jurnali va unda muntazam ravishda berib boriladigan maqolalar, axborotlar, turli materiallar va statistiklarni tahlil qilamiz.

Ma'lumki, gazetalar mavzu ko'lami, muayyan davrdagi dolzarb axborotlar nuqtayi nazaridan oylik, haftalik, kunlik bo'lishi mumkin. Jurnallar esa aksariyat hollarda mavsumiy bo'ladi, ya'ni, yilda bir marotaba, ikki marotaba yoki bo'lmasa to'rt marotaba chiqadi. Misol tariqasida aytadigan bo'lsak, biz tahlil qilmoqchi bo'lgan "Uzbekistan Airways" jurnali har mavsumda yangidan-yangi qiyofa kasb etib, yuqori saviyada chop etiladi. Mazkur bosma nashrda berib boriladigan materiallar, fotosuratlar, statistikalar, reklamalar hamisha o'zgarib, yangilanib turadi. Jurnalni varaqlagan har qanday odam undagi axborotlarni tezkorlik bilan bilishga oshiqadi. Chunki jurnal dizayni, undagi materiallar kema-ketligi, serjilo tasvirlar ko'zni qamashtiradi. Bundan tashqari, xalqaro hamjamiyat e'tirof etgan qadimiy madaniy meroslarimiz ham jurnal sahifalaridan joy oladi. Bu esa xorij fuqarolarining olqishiga sazovor bo'lib kelmoqda.

Masalan, "Uzbekistan Airways" jurnalining kuzgi sonida "The Delicious Aroma of Uzbek Flat Cakes" nomli maqola chop etilgan. Unda yozilishicha, butun dunyoni hayratga solib kelayotgan "o'zbek nonlari" qadimda ham o'z mavqeyi va nufuziga ega bo'lgan. Hatto, Nizomiddin Mir Alisher Navoiy bobomiz ham o'z zamonalarida nonning naqadar buyuk ne'mat ekanligi, uning qadriga yetmoq kerakligini bot-bot takrorlaganlar. O'zbekistonning biror-bir tadbir, marosim, bayram, to'y yoki tantanasi yo'qki, unda nonning o'rni bo'lmasa. Hech qachon nonni qaychi bilan kesib bo'lmaydi, non aslo oyoq ostida yotmaydi, kimda-kim nonni yerda turganini ko'rsa, albatta, olib chetga, hech kim bosib olmaydigan joyga olib qo'yishi lozim. Chunki xalqimiz "Nonning o'zi ham non, uvog'i ham non deb bejizga aytmagan". Non asta-sekinlik bilan ushatilib, mehmonlar oldiga qo'yiladi. Bu ham o'zbekning eng go'zal qadriyatlaridan biri. Qadimda momolarimiz, onajonlarimiz safarga otlanayotgan dilbandlariga ketish oldi bir tishlam non yedirib, rizqing shu nondek ulug' bo'lsin deb duo qilib kuzatganlar. Bizning bunday qadriyatlarimiz va go'zal an'alarimiz mazkur maqolada ham o'z aksini topgan. Shuningdek, materialda malakatimizning turli go'shalarida nonni turlicha hajm va ko'rinishda tayyorlanish texnologiyasi haqida ma'lumotlar keltirilgan. Xususan, Samarqand non, Namangan non, Qo'qon patir, voha nonlari, qolaversa, Buxoro, Xorazm, Toshkent va boshqa nonlar shular jumlasidandir.

“Uzbekistan Airways” jurnalining kuzgi sonida e’lon qilingan “An artistic tour of Underground Palaces” nomli maqola yurtimizga tashrif buyurgan xorijlik sayyohlarning yerosti yo’lini tomosha qilishga undaydi. Buning boisi, istalgan bekatni olib qarasak, rango-rang tasvirlar, naqshinkor suratlar inson aqlini shoshiradi. Suratkash Bobur Alimxo’jayev hamda rassom Tamila Ubaydullayevalar hamkorlikda Toshkentning go’zal, ajoyib maskanlari hamda muloyim, ochiqko’ngil va samimiy odamlari haqida asar yaratmoqchi ekanliklarini ta’kidlab, “o’zbek metrosi”ga sayohat qilish istagini bildirishdi. Metroning betakror qiyofasi, bekatlardagi hashamat, bejirim tasvirlar, xattoki, bekatlar nomlanishi ham o’zbek xalqining o’tmishi bilan bog’liqligini ko’rib, bu ikki ijodkor bir olam zavq olishdi. Bobur Alimxo’jayev tarixiy suratlar bilan ishlaganim uchun bu sayohat menga qo’l keldi, boisi u yoshligimni yodimga soldi, otam bilan ayniqsa, yoz paytida metroga kirishni juda yoqtirardim, chunki metro doimo yozda salqin, qishda issiq bo’lishini do’stlarimdan eshitgan edim, ayniqsa, uning hididan to’yib nafas olish juda yoqimli edi deb, bolalik chog’larini xotirlaydi.

“Uzbekistan Airways” jurnalining qish mavsumidagi sonida yana bir yaxshi material chop etilgan. Maqola “Kapitan Ikat: Dilyara Kaipova’s textile fantasies” deb nomlandi. Unda taniqli dizaynerning yangi yo’nalishdagi to’plamidan o’rin olgan eng sara liboslar taqdim etilgan. Shuningdek, ijodkor eng so’nggi urfdagi zamonaviy matolar bilan odamlar e’tiborini jalb etish mushkul deya ta’kidlaydi. Shu sababdan ham o’zbek matolarining eng saralaridan foydalanib, o’ziga xos noan’aviy, milliylik va zamonaviylik ufurib turgan san’at asarlarini yaratib, barchaning e’tirofiga sazovor bo’lgan. Bundan tashqari, ijodkor o’zida bu sohaga qiziqish bolalik chog’laridanoq boshlanganligiga iqror bo’lib, quyidagi fikrlarni aytadi: Ilgari qayerga bormay, xoh muzeyga bo’lsin, xoh tasviriy san’at galereyalariga bo’lsin, faqat qadimiy naqshlar tushirilgan, milliyligimiz bilinib turadigan tarixiy gilamlarni tomosha qilar edim. Mana shu qiziqish meni oxir-oqibat san’at olamiga olib kirdi. Eng katta orzularimdan biri – o’zbek matolarining naqadar go’zal, serjilo, ko’zni quvontiradigan, takrorlanmas va dunyoda tengi yo’q ekanligini o’z ijod namunalarim orqali yana bir karra isbotlashdan iboratdir. Jahon ahli mening yaratgan liboslarimni ko’rib, demak, o’zbeklar har sohada ildam, yengilmas ekan, degan xulosaga kelishini istayman. Buning uchun bor mahoratimni ishga solaman. Mamlakatimiz imijini o’ziga xos ijodiy ishlarim bilan yanada yuqori ko’tarishga harakat qilaman.

“Uzbekistan Airways” jurnalining 2019-yil bahorgi sonidan “International Forum Invest In Khorezm” nomli maqola joy olgan. Unga ko’ra, 2019-yilning 5-6-aprel kunlari xalqaro investitsiya forumi o’tkaziladi. Forum doirasida:

- istiqbolli investitsiya loyihalari taqdimotini o’tkazish;
- Xorazm viloyati mahsulotlarining taqdimotini o’tkazish;
- viloyatning turizm salohiyati qay darajada ekanligini aks ettiruvchi taqdimotini o’tkazish;
- “B2G” va “B2B” formatdagi kooperatsion birja taqdimotini o’tkazish;

- O'zbekiston Respublikasining qator vazirliklari bilan hamkorlikda qishloq xo'jaligi, sanoat, ijtimoiy soha, turizm hamda energetika sohalarini rivojlantirishga qaratilgan loyihalarni amalda tatbiq etish;

- forum ishtirokchilari bilan yirik mahsulotlar ishlab chiqaruvchi va jahonning eng ilg'or savdo kompaniyalari, shuningdek, turistik firmalarda o'quv kurslarini tashkil etish va unda malaka oshirish ko'zda tutilgan.

Ma'lumki, Xorazm zamini qadimdan Markaziy Osiyoning tarixiy-madaniy markazlaridan biri bo'lgan. Buyuk Ipak Yo'lida karvon savdosining asosiy o'chog'i sanalgan. Shu nuqtayi nazardan kelib chiqib, mazkur forumda viloyatning butun dunyoga mashhur san'ati, tarixiy obidalari, qadimiy an'analari qayta jonlanadi. Xorijlik ishtirokchilar maxsus videoroliklar orqali yana bir bor Xorazm haqida boy tasavvurga ega bo'ladilar. Forum investitsiya rivoji va istiqboliga bag'ishlangan bo'lsa-da, mana shunday tadbirlar orqali yurtimizga kelmoqchi bo'lgan sayyohlar sonini ko'paytirish imkoni mavjud.

"Uzbekistan Airways" jurnalining 2019-yil yoz mavsumidagi sonida "Ancient Khiva invites you to The Magic of Dance" International Festival nomli maqola chop etilgan. Unda 2019-yilning 14-16-sentabr kunlari qadimiy Xiva shahridagi ochiq osmon ostida joylashgan "Ichon qal'a" muzeyida "Mo'jizaviy raqs" xalqaro festivali o'tkaziladi. Festivalga tashrif buyurgan har qanday inson afsonaviy Sharqning durdonalari, mo'jizaviy Xorazm madaniyati, tarixi va betakror raqsiga guvoh bo'ladi. Shuningdek, musiqiy bayramga O'zbekiston va ko'plab xorij mamlakatlaridan musiqa va raqs jamoalari tashrif buyuradi. Mana shu 3 kun davomida mehmonlar va ishtirokchilar uchun master-klasslar, ijodiy kechalar, folklor jamoalari va ansambllarning animatsion shou-dasturlari tashkil etilishi ko'zda tutilgan. 'Ming marta eshitgandan, bir marta ko'rgan Afzal' deganlaridek, ertaknamo Xiva shahriga betakror, mo'jizakor raqsni tomosha qilish uchun kelgan inson, hech qachon afsuslanmaydi.

"Uzbekistan Airways" jurnalining 2019-yil yozgi sonida yana bir "The best food is offered on board our airplanes" nomli maqola chop etilgan. Unda qayd etilishicha, havo kemalarimizda yo'lovchilarga eng mazali taomlar tortiq qilinadi. Uzbekistan Airways Milliy aviakompaniyasi bortidagi eng mazali taomlari bilan xorijiy aviakompaniyalar reytingida birinchi o'rinni egallagan. Reytingni Rossiyaning nufuzli sayohat servislaridan biri "tutu.ru" tuzgan. Saytda 2018-yilning apreldan 2019-yilning apreliga qadar 27 ming mustaqil yo'lovchi tomonidan qoldirilgan fikr-mulohazalar tahlil qilingan. O'tkazilgan so'rovnoma xuddi ikki yil oldin kuzatilganidek, Uzbekistan Airways Milliy aviakompaniyasi shubhasiz peshqadam ekanligini ko'rsatgan. Yo'lovchilar ijobiy baho bera turib, ko'pincha hammasi juda mazali va to'yimli bo'lganini eslashgan. Bundan tashqari, yo'lovchilar parvoz olti soatdan ortiq davom etganida aviakompaniya asosiy taomga qo'shimcha qilib nonushta ham taklif etishini mamnuniyat bilan qayd etishgan. Bundan ko'rinib turibdiki, endilikda havo kemalarimiz orqali parvozni amalga oshirish istagini

bildirgan yo'lovchilar soni yanada oshadi, chunki yurtimiz va undagi har sohada qo'lga kiritilayotgan ulkan yutuq va muvaffaqiyatlarni o'z ko'zi bilan ko'rmoqchi bo'lgan xorijlik mehmonlar safi tobora ortib boradi. Bu esa, hech shubhasiz, milliy taomlarimiz jahon ahlini hayratga solishda davom etayotganligidan dalolat beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. <http://www.marcopolo.uz>.

PUBLITSISTIK MATN TAHRIRINING MANTIQUIY ASOSLARI

Abdyujanova Vazira Xusan qizi

**O'zbekiston jurnalistika va
ommaviy kommunikatsiyalar universiteti
1-bosqich tayanch doktoranti**

Annotatsiya. Maqolada publitsistik matnda, qo'lyozmada muallif fikrining aniq, izchil hamda asosli ifodalanganiga erishishda mantiq qonunlarining o'rni va ahamiyati, muharrirning mantiqiy tahlil qila olish malakasiga ega bo'lishida talab etiladigan jihatlarga e'tibor qaratilgan.

Kalit so'zlar: publitsistik matn, tahrir, muharrir, mantiq, mantiq qonunlari.

Mantiq barcha fan sohalari bilan aloqador va bog'liq ilm bo'lib, to'g'ri fikr yuritish qonun-qoidalarini o'zida aks ettiradi. Jurnalistik faoliyatda ham mantiq ilmini puxta egallash, mantiqiy tahlil malakasiga ega bo'lish ish faoliyatida muhim ahamiyat kasb etadi. Ayniqsa, publitsistik matn tahriri bilan shug'ullanuvchi muharrir matnni mantiqiy tomondan professional baholay olish qobiliyatini shakllantirishi, matndagi mantiqiy bog'lanishlarning rolini aniq anglashi, mantiqiy tahlil qilish uslublarini mukammal egallashi zarur. Negaki, jurnalistika asari uchun mantiqiy qurilish aniqligi birinchi darajali ahamiyatga molikdir [1; 459]. Shu sababdan ham mantiqiy tahlil qo'lyozma bilan ishlashning barcha bosqichlarida zarur hisoblanib, mulohazalardagi noaniqliklarning oldini olishga xizmat qiladi.

Mantiqiy fikrlashning asosiy qonunlariga rioya qilishni nazorat qilish matnni tahlil qilishning majburiy bosqichidir [2]. Muharrir nafaqat mantiqning asosiy qonunlarini bilishi, balki mantiqiy buzilishlarning paydo bo'lish mexanizmini, ularni matnda birlashtirishni, xatolarning kommunikativ aloqaga salbiy ta'sirini oldindan tasavvur qila bilishi zarur.

Mantiqning yetarli asos, ayniyat, uchinchisi istisno va nozidlik qonunlari orqali muharrir qo'lyozmadagi muallif fikrining aniq, izchil hamda asosli ekaniga erishadi. Quyida har bir qonunni aniq misollar yordamida ko'rib chiqamiz.

Yetarli asos qonuni. To'g'ri fikrlashga xos bo'lgan muhim xususiyatlardan biri isbotlilik, ishonchlilikdir. Fikrlash jarayonida buyum va hodisalar haqida chin